



**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z TURKUMLARINING
GRAMMATIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

Shodiyeva Gulrux Nazir qizi

FarDU, mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qiyosiy tilshunoslikda soʻz turkumlarining oʻrganilishi, bu borada ish olib borgan olimlarning fikrlari muhokama etiladi.*

Kalit soʻzlar: *Soʻz turkumlari, tilshunoslik, morfologiya, nazariya, metod.*

KIRISH

Keyingi oʻttiz yil davomida tillarni qiyosiy oʻrganishga eʼtibor juda kuchaydi. Yevropa mamlakatlarida va AQShda tillarning qiyoslash markazlari va projeklari tuzildi. Yevropadagi deyarli barcha tillar bir-birlari bilan qiyoslandi. Bu xarakatlarning natijasi til oʻrganishni yaxshilash vazifasiga xizmat qildi. Bu sohada katta-katta asarlar chop etildi. Respublikamiz olimlari ham tillarni qiyoslashga katta xissa qoʻshdilar. Professorlar J.Boʻronov, Oʻ.Yusupovlar tillarni qiyoslash uchun yangi nazariyalarni ishlab chiqdilar va ularning shogirdlari bu nazariyalar asosida oʻzbek tilini chet tillari bilan qiyoslamodalar.

ASOSIY QISM

Soʻz turkumlariga ayrimlar (Berezin F M., Golovin B.N., Dokulil M., Blokh va boshqalar) soʻzlarning grammatik klassifikatsiyasi deb qaraydilar va ularda grammatik kategoriyalarni koʻradilar. Boshqalar (Cmirniskiy A.I., Stepanov Yu.S., Stepanova M.D., Xelbig G.) esa ularni soʻzlarning leksik – grammatik klassifikatsiyasi deb ataydilar. Bizningcha, ikkinchi fikr haqiqatga yaqin, chunki grammatik maʼno soʻz negizidan tashqarida ifodalanadi, soʻz negizi esa leksik maʼno anglatadi. Birinchi fikr tarafdorlariga ”Agar soʻz turkumlari grammatik kategoriyalar boʻlsa, unda ulardagi leksik abstrakt maʼno (predmetlik, harakat va boshqa maʼnolar) qaerda qoladi?” degan mantiqiy savol paydo boʻladi. Nahotki, soʻz turkumlarida leksik maʼno boʻlmasa. Nahotki, lugʻat sostavidagi soʻzlarning barchasi grammatik kategoriyalar boʻlsa.

Yuqorida berilgan faktlar shuni koʻrsatadiki, ingliz grammatistlarining ot turlari haqidagi fikrlari juda ham turlichadir ot turlarining soni noldan 14 tagacha boradi. Koʻrinadiki, oʻzbek tilshunoslari ajratgan ot turlari noldan 12 taga yetadi. Bizningcha ikkala tildagi fikrlar rangbarangligining sababi grammatika va leksika oʻrtasidagi aloqaga eʼtibor bermaslik yoki yetarli eʼtibor bermaslikdadir.

Ingliz va oʻzbek tillari boʻyicha chop etilgan grammatikaga oid dars va qoʻllanmalarda ot turlarining soni har xil, bu holat hatto bir til boʻyicha chop etilgan asarlarda ham kuzatiladi. Bunday keskin farqlarning sababi otlarni klassifikatsiya qilish prinsiplarini ishlab chiqilmaganligidadir. Grammatika mualliflari yo boshqa mualliflarning klassifikatsiyasini mexanik ravishda takrorlaydilar, yoki otlarni biror kriteriysiz oʻzlarichalik turlarga boʻladilar. Bunday subyektivlikni yoʻq qilish uchun otlarni klassifikatsiya qilish ilmiy



kriteriysini yaratish kerak bo'ladi.

Biz taklif qilmoqchi bo'lgan otlar klassifikatsiyasi leksika bilan grammatikaning o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Bunda har bir ot turi biror grammatik belgiga ega bo'lishi kerak. Fe'l bilan ot ega va kesim vazifasida gapning struktural markazini (yadrosini) hosil qiladi va ular lug'at tarkibidagi aksariyat so'zlarni tashkil qiladi.

So'zlarni turkumlarga bo'lish qadim zamonlarda boshlangan. Masalan, V.A.Zveginsevning aytishiga ko'ra, Platon so'zlarni otlarga va fe'llarga bo'lgan va ularni quyidagicha tushingan: *«Именами называются слова, о которых что-либо утверждается, т.е. слова, выступающие в качестве подлежащих; глаголы же показывают, что утверждается об именах, и, следовательно являются сказуемыми»* [2,10].

Ko'rinadiki, Platon so'z turkumlarini gap bo'laklariga bog'liq holda o'rgangan. Aristotel o'zining Poetika asarida morfologik kategoriyalarni, fonetik birliklarni, sintaktik kategoriyalarni so'z turkumlariga qorishtirib yuboradi va quyidagi so'z turkumlarini belgilaydi: element, bo'g'in, bog'lovchi, ot, fe'l, a'zo, kelishik, gap.). U o'zining "Ritorika"sida esa so'zlarni uchta turkumga – ot, fe'l va bog'lovchilarga – bo'ladi [2, 10-11].

Ilgarilari so'z turkumlarini aniqlashda ko'pchilik olimlar faqatgina bitta belgidan (kriteriydan) - semantikadan- kelib chiqishgan. Ingliz olimi Ch.Friz so'zlarning pozitsiyasidan ya'ni distributsiyasidan kelib chiqqan.[3, 67-86] Hozirgi zamon tilshunosligida esa so'z turkumlarini aniqlash bir qancha belgi asosida aniqlanadi. Bu belgilar quyidagilar: semantika, morfologik kategoriyalar, so'z yasash morfemalari, sintaktik vazifa (o'sha so'z turkumiga kiruvchi so'zlarning nutqda qanday gap bo'lagi bo'lib kelishi). O'sha so'z turkumini qaysi so'z turkumlari bilan birika olishi, ya'ni valentligi) So'z turkumlarini ko'pbelgilik asosida aniqlashning birbelgilik asosida aniqlashdan ancha ustinligi va ishonarliligi lingvistik adabiyotlarda (Kochergina V.A., Stepanova M.A., Xelbig G. va hokazo) yetarli yoritilgan, shuning uchun bu masala ustida to'xtashni lozim topmadik.

Aytish lozimki, yuqoridagi kriteriylarning ayrimlarini yordamchi co'zlarga nisbatan ishlatib bo'lmaydi, chunki yordamchi so'zlar morfologik kategoriyalar va so'z yasash morfemalariga ega emas. Yuqorida tilga olingan kriteriyalar Yevropa va turkiy tillardagi, shu jumladan ingliz va o'zbek tillaridagi so'z turkumlarini, o'rganishda yaxshi natijalar beradi degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arakin V. D. Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi". -L.: 2009 yil.
2. Yartseva V. N. Kontrastiv grammatika. - M.: Nauka, 2011 yil.
3. Yusupov U.K. Ingliz va o'zbek tillarining kontrast lingvistikasi. Toshkent: Akadtmnashr, 2013 yil.
4. www.ziynet.uz